

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

QAROEV XAMID ISLOM O‘G‘LI

**“QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI HISOBLASH VA
TO‘LASH TARTIBI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedra mudiri

i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ _____ ” _____ 2013 y.

Bitiruvchi: Qaroev Xamid Islom o‘g‘li _____

Ilmiy rahbar: k.o‘q. Shodiev O.A. _____

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

	Betlar
KIRISH.....	3
I BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	7-20
1.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati.....	7
1.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati.....	11
II BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINING AMALIY TAHLILI (URGUT TUMANI KORXONALARI MISOLIDA).....	21-36
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti hamda soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi.....	21
2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va soliqdan beriladigan imtiyozlar.....	25
2.3. Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish va byudjetga to'lash muddatlari.....	31
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	37-52
3.1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
3.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish.....	48
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57
ILOVALAR.....	62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi istiqloq yillarida ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bosqichma-bosqich mustaqil soliqlar tizimini barpo etdi. Bu jarayonda eski, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelmaydigan soliqlar (oborot solig'i, foydadan ajratma, o'rmon solig'i va hakazolar) tugatildi va bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi soliq tizimi joriy etildi. Demak, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaviy va soliq munosabatlarini takomillashtirish o'ta muhim va murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Respublika soliq tizimidagi o'zgarishlar bu masalaning ijobiy hal etilishi, turli xil yo'llar orqali amalga oshirilishini amalda ko'rsatmoqda. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish mazkur soxalarda erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas. Yuqorida bildirilgan fikrlarning nechog'li haqiqatga yaqinligini davlatimiz rahbari I.Karimovning quyida bildirgan fikrlarida ham ko'rish mumkin: "2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0.4 foizni tashkil etdi¹".

Ma'lumki, qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish yoki muomalaning har bir bosqichida qo'shilgan qiymat qismidan undiriladi. Qo'shilgan qiymatga ish xaqi, amortizatsiya, kredit uchun foiz, elektr energiyaga, transportga, reklamaga ketgan sarf xarajatlar kiradi. Bittagina tovar boshqatdan sotilayotgan bo'lsa, soliq xarid va sotish narxlari o'rtasidagi ayirmani hosil qiluvchi

¹ "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Ma'rifat gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, №6

qo'shilgan qiymatdan hisoblanadi. So'ngra bu soliq tovarning uzil-kesil narxiga qo'shiladi, ya'ni bunda ishlab chiqaruvchini emas, balki iste'molchining daromadi soliq solish ob'ekti bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i respublikada joriy qilingan soliqqa tortishning eng murakkab, ko'p qirrali va nisbatan kam takomillashgan qismidir. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatilganda aksariyat yangi xosil qilingan qiymatdan kelib chiqib byudjet daromadiga o'tkazishning bir shaklidir.

Xozirgi kunda soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat byudjetini shakllantiruvchi asosiy manbaa bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda yangi soliq tizimi va uni amal qilish mexanizmi muhim asoslar bilan ishlab chiqilishiga qaramasdan bu sohada hal etilishi zarur bo'lgan muammolar etarlicha. Mazkur soliq bo'yicha berilgan imtiyozlarni qo'llash va ulardan foydalanish orqali ko'zlangan natijalarga erishib bo'lmayotganligi hamda aksariyat hollarda bu imtiyozlar xo'jalik sub'ektlari iqtisodiga boqimandalik holatlarini yuzaga chiqarmoqda. Bunaqangi vaziyatlarning mavjud ekanligi shu sohada ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi. Bu esa bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti. Yuridik shaxslardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i bitiruv malakaviy ishining ob'ekti hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga undirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviy ishi predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari, soliq ob'ekti, soliq solinadigan baza, soliqdan beriladigan imtiyozlar, soliq stavkalari, soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibini nazariy va amaliy material asosida tadqiq qilish hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida mazkur

soliqning hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- qo'shilgan qiymat solig'ini egri soliq sifatida iqtisodiy mohiyati va mazmunini ochib berish hamda mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida uning asosiy vazifalarini aniqlash;
- qo'shilgan qiymat solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritish;
- qo'shilgan qiymat solig'ining respublikamiz soliqqa tortish amaliyotida qo'llanilish mexanizmini amaliy ma'lumotlar asosida tahlil etish;
- amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarga beriladigan imtiyozlarni guruhlab o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilariga soliqdan imtiyozlarni qo'llashdagi muammo va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini bayon etish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida asoslangan ilmiy xulosa va amaliy takliflardan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish mexanizmini takomillashtirishda, soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobini tashkil etish va yuritish, soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlash, soliqni byudjetga o'z vaqtida to'lanishini tashkil etishni takomillashtirishda, soliq munosabatlarini tartibga solishda, soliq bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda hamda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati, qo'shilgan qiymat solig'ining shakllanishi va rivojlanishi, uning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini undirish va byudjetga to'lash mexanizmi amaliy materiallar asosida tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish masalalari bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida tadqiqot natijasida olingan xulosalar umumlashtirilgan va takomillashtirish yuzasidan takliflar tizimi ishlab chiqilgan.

1-BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.

1.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati.

Hozirgi kunda soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) umumdavlat soliqlari sifatida davlat byudjetini shakllantiruvchi manba bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'ining zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solib turish va uni boshqarish vazifasi bajarayotgan paytda namoyon bo'ladi. Shu davrda davlat o'z funksiyasini bajarishi uchun albatta moliyaviy manbaga ega bo'lishi kerak. Ana shunday manbalarni byudjetga jalb qilishning asosiy, balki, kelajakdagi yagona yo'li soliqlardir.

Qo'shilgan qiymat solig'i egri soliq hisoblanadi. Bu esa egri soliq sifatida mahsulotlar narxining keskin oshishiga sabab bo'ladi. Mahsulotlar narxining keskin oshishi, iste'molchilar xarid qobiliyatini pasaytiradi. Chunki egri soliqlarning xaqiqiy to'lovchilari oxirgi iste'molchilar hisoblanadi. Respublikamizda egri soliqlar sifatida qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojlari va boshqalarni misol keltirish mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarishning har bir bosqichida yaratilayotgan qiymatga (ya'ni, mahsulot, ish va xizmatlar) qiymatiga, davlat o'z hukmronligidan foydalanib, o'zining "haqini" qo'yadi va mahsulot va ish-xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i hisobiga sun'iy oshirilishi natijasida asosan aholi daromadlarining bir qismini o'zining daromadiga korxonalar va tashkilotlar vositachiligida undirib olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy vazifasi va ahamiyatli tomoni byudjet daromadlarini shakllantirishdir, ya'ni fiskal funksiyasini bajarishga xizmat qiladi. Bu soliqdan iqtisodiy va ijtimoiy funktsiya sifatida foydalanish imkoniyatlari chegaralangan. Umuman egri soliqlar iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud mamlakatlarda davlat xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida joriy etiladi.

Har qanday buyum, narsa, voqelikni chuqur bilish uchun uning mohiyatini chuqur tushunib etmoq zarur. Qo'shilgan qiymat solig'ini ham boshqa solikdar kabi mohiyati, ya'ni soliqchi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda o'z aksini topadi. Shunday ekan qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyatini shakllantirishda uni qat'iy doimiy takrorlanib turadigan munosabat deb tushunishimiz lozim. Qo'shilgan qiymat solig'ining doimiy takrorlanib turishi uni iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq, shu bois qo'shilgan qiymat solig'ining faqat qiymat kategoriyasi orqali maqsadga muvofiqdir². Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki har qanday iqtisodiy kategoriya avvalo qiymat kategoriyasi sifatida shakllanadi, so'ng bunday voqelik harakati iqtisodiy munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa bundan istisno emas. Shunday qilib, qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy kategoriya sifatida yaratilgan jami ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib hisoblanadi. U mehnat mahsulidir. Qo'shilgan qiymat solig'ining yuzaga kelishi yaratilgan qiymatning taqsimotiga asoslanadi. Bu o'z vaqtida moliyaviy munosabatlarda va uni harakatga keltiruvchi jarayonlarda to'liq o'z ifodasini topadi. Shu bois, qo'shilgan qiymat solig'ining yuzaga kelishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishi bevosita qiymatning yaratilishi bilan bog'liqdir³. Qo'shilgan qiymat solig'ining yaratilishi bir vaqtning o'zida o'ziga xos, unga mos soliq munosabatlarini yuzaga keltiradi va uning takomillashtirilib borilishini ta'minlaydi. Shunday ekan qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati boshqa soliqlarga mansub munosabatlar doirasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Amaliyotda QQS deganda bevosita byudjetga tushadigan majburiy pul to'lovi tushuniladi. Bu esa QQSni boshqa soliq turlariga tenglashtirilayotganligidan dalolat berishi, qolaversa QQSni mohiyati boshqa soliq turlariga bog'liq holda befarqli ta'riflanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunda soliqlarni guruhlash orqali ularning mohiyati va ahamiyatini asoslashga

² Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. 56-bet

³ Майбуров И. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2008. С. 111

extiyoj qolmagan bo'lar edi. Shuni etiborga olish joizki, QQS bilvosita soliqlarning funktsional elementidir. Uning to'lovchilari iste'molchilar bo'lib hisoblanadi. QQSni ana shunday tabiatidan kelib chiqqan holda, uning mohiyatini ifodalovchi darajada ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, QQS - bu tovarlar, ishlar xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari doirasida yangi hosil qilingan qiymatning bir qismini byudjet daromadiga iste'molchilar hisobidan majburiy to'lov sifatida undirilishidir. Bir qismini davlat ixtiyoriga iste'molchilar tomonidan yaratilgan yangi qiymatni bir qismini sof daromad sifatida undirilishi aniqlanadi. QQS majburiy tartibda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan va huquqiy qonunlar bilan ta'minlangandir. Shunday ekan, QQSni to'lamaslikka, soliq ob'ektini kamaytirib ko'rsatishga yuridik shaxslarning haqqi yo'q. QQSni to'lash xo'jalik sub'ekti bilan davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy shakli, daromadlarni bir qismini xo'jalik sub'ektlari bilan davlat o'rtasida taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

QQSning mohiyatini ifodalashda uning eng avvalo majburiy to'lov sifatida izohlashga harakat qiluvchi iqtisodchilar yo'q emas. To'g'ri, QQSni to'lashda majburiylik bor, lekin bu majburiylik demokratiyaning oliy timsoli bo'lmish Oliy Majlis qarori, ya'ni qonun bilan kiritiladi va QQSni to'lovchilari bilan davlatning eng asosiy talablari e'tiborga olinadi. Demak QQSdagi majburiylik huquqiy demokratik me'yorlar asosida Oliy Majlis tomonidan kiritiladi. Vaholangki, majburiylik boshqa soliq xillariga ham xos xususiyatdir. Qolaversa byudjetga boshqa maxsus jamg'armalarga to'lovlar va ajratmalar ham majburiylik xarakteriga ega. Shunday qilib, QQS o'z mohiyatiga ko'ra, uzoq yillarga mo'ljallangan majburiylik munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, sobiq ittifoq davrida oborot solig'i 62 yil o'zgarmasdan iqtisodiyotga xizmat qildi. Bizning mustaqil Respublikamizda QQS ham ana shunday uzoq yillarga xizmat qiladigan oddiy, hammaga tushunarli bilvosita soliq bo'lishi kerak. Buning uchun ular Respublika iqtisodiyotiga xos xususiyatlarni to'liq ifoda eta oladigan va ilmiy asoslangan bo'lishi zarur. O'zbekistan Respublikasi iqtisodiyotining

rivojlanishi erkin bozor munosabatlari bilan ifodalanadigan bo'lsa, davlat bilan bozor munosabatlari sharoitida ishlaydigan korxonalar, birlashma va tashkilotlar o'rtasidagi munosabat faqat huquqiy munosabat asosida bo'lishi taqozo etiladi. Bunday munosabatlar qisman QQS bilan amalga oshiriladi.

Demak, QQS - bu iqtisodiy qiymat kategoriyasi bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy munosabatni o'zida shakllantiradi. Bunday iqtisodiy munosabat qiymat harakati bilan o'z ifodasini topadi⁴. Avvalo QQS - bu jami ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib hisoblanadi. QQSning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, uning ta'sir doirasi bilan belgilanadi. Uning hosil bo'lishi va ishlatilishining o'ziga xos mexanizmi (to'lashning shartligi, to'lov muddatlari va mulkdorlarning qayd qilinishi) unga mablag'larni jamlashning soliq usuliga oid boshqa belgilarni kasb etadi.

QQS bizning Respublikamizda soliq turlarining tarkibida etakchi o'rin egallab barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni harakatga keltirishi bilan ham ajralib turadi. QQS bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchi bosqichga o'tishining mahsuli bo'lib hisoblanmaydi. U kishilik jamiyatining, ishlab chiqarish jarayonlarining shakllantirilib borishi bilan bog'liqdir. QQS o'zining nomini o'zgartirishi mumkin, lekin o'z tabiatini o'zgartira olmaydi. QQS o'z mohiyati jihatidan ilgari amal qilib kelgan oborot solig'iga o'xshab ketadi. Oborot solig'i markazlashgan sof daromad deb hisoblanib, qat'iy ravishda byudjetga o'tkazilar edi va xo'jalikda oshiqcha foyda bo'lishiga yo'l qo'ymas edi, xo'jalik hisobi tamoyillarini mustahkamlash manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati benihoyat katta bo'lib, byudjetni mustahkamlash manbai sifatida xizmat qiladi. Oborot solig'i asosan davlat belgilagan baholar sifatida hisoblanar edi. Korxonalar va tashkilotlarga o'z tovar va xizmatlariga baholarni o'zlari belgilashi huquqi berilganligi davlat qo'lidan bu huquqni olib qo'ydi. Natijada oborot solig'i tubdan o'zgartirilib, qo'shilgan qiymat solig'i yosh, mustaqil respublikamizning soliq tizimiga kirib keldi.

⁴ Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. С. 99

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan soliqlar orasida QQS muhim o'rin tutmoqda. Bilvosita tUSDagi bu soliq byudjet tushumlari orasida juda katta qiyosiy salmoqqa ham ega (bu haqda keyingi cavolimizda to'liqroq to'xtalamiz). QQS ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda katta rol o'ynamokda. Uni savdoda soliqqa tortishnint muvaffaqiyatli chorasi deb tan olinib ham kelinmoqda⁵. Shu soliq sharofati bilan eksport solig'ini aniq belgilash va qaytarish sharafiga ega bo'linmoqda. QQS tashqi savdoga va texnik usullarga nisbatan neytral o'rin tutadi. Bundan tashqari, biznes yuritishning shakl va usullari QQSga ta'sir o'tkazmaydi. QQSni shu tariqa ijobiy baholash mumkin, zero resurslarni taqsimlash chog'ida bozor vositalari uchun tanlash erkinligini beruvchi iqtisodiyot sharoitida yuqorida aytilgan shartlar QQSning muhim jihatlari hisoblanadi.

1.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati.

Qo'shilgan qiymat solig'ining zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solib turish va uni boshqarish vazifasi bajarayotgan paytda namoyon bo'ladi. Shu davrda davlat o'z funktsiyasini bajarishi uchun albatta moliyaviy manbaga ega bo'lishi kerak. Ana shunday manbalarni byudjetga jalb qilishning asosiy, balki, kelajakdagi yagona yo'li soliqlardir. Qo'shilgan qiymat solig'i birinchi marta 1954 yilda frantsuz iqtisodchisi Morris Lore tomonidan taklif qilingan bo'lib, bozor iqtisodiyoti amal qiladigan ko'pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Masalan, Sharqiy Evropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Frantsiya, Shveysariya)da 60 yillarning oxirida, (Belgiya, Buyukbritaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada) 70-yillarning boshlarida QQS joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi

⁵ Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. 59-bet

35dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligiga kirgan barcha davlatlarda 1992 yildan boshlab QQS joriy etilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda joriy etilgan bo'lib, Avstraliya va AQSh bundan mustasnodir. QQSni chiqarib tashlash usulidan foydalaniladigan Yaponiyadan tashqari mazkur mamlakatlarning hammasi QQS kredit hisob-kitobi usulidan foydalanadi. Bu usul korxonalar - shaxslardan ta'minotning barcha bug'inlari bo'yicha soliqqa tortiladigan xom ashyo va materiallarning barcha turlari uchun tegishli stavka bo'yicha QQS hisobini yuritishni talab qiladi. Soliq to'lovchilar xom ashyo va materiallar etkazib beruvchilardan olinadigan QQS miqdori kreditdan chiqarib tashlanishiga haqlidir. Buning tasdig'i sifatida bunday xom ashyo va materiallarga ma'lum talablarga mos keladigan soliq hisob-kitobi yoziladi. IHTTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning deyarli hammasida yillik aylanmaning eng yuqori miqdori (soliq chegarasi) belgilab qo'yilgan va shu tufayli ular QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tmaslikka haqlidir. QQS tizimi ikki bosqichda joriy etildi. Avvalo Shimoliy Evropa mamlakatlarining ko'pchiligida va Evropa Ittifoqiga eng birinchi bo'lib kirgan mamlakatlarda qo'llanilgan, so'ngra 1986 yilda IHTT mamlakatlarida umumiy soliq isloxlarning amalga oshirilishi QQSning Evropadan tashqarida ham tarqalishiga olib keldi. Natijada IHTTga a'zo bo'lgan 25 mamlakatdan 23 tasida QQS juda qisqa muddatda joriy etildiki, bu o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha ta'sir va sabablarning in'ikosi edi⁶. Shunday sabablardan biri, masalan, QQS ishlab chiqarish va iste'molni kamroq darajada o'zgartirib, narx-navoga ancha holis ta'sir o'tkazishidir. Bundan tashqari, u mahsulot etkazib beruvchilar orqali kuzatib turish imkoniyati bo'lgani uchun aldash imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu esa QQSning ancha yuqori stavkalarini belgilashga, binobarin iste'molga umumlashtirilgan soliqlarning boshqa turlariga nisbatan ko'proq daromad olishga imkon beradi. QQSning faktura usulidan foydalanib, ma'lum tovarlardan yig'ilgan QQS

⁶ Алиев Б., Абдулгалимов А., Алиев М. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”, 2011. С. 40

miqdorini aniq bilish imkonini berishi ham juda muhimdir. Bu usul bojxona orqali tartibga solishga yanada aniqroq tus beradi. Ayni shu maqsadda Evropa Ittifoqi (EI)ga kirish istagini bildirgan mamlakatlarda QQSni joriy etish zarurdir.

Ko'pgina mamlakatlarda QQS davlat soliq daromadlarining 12 foizdan 30 foizgacha bo'lgan daromad qismini qoplaydi, ya'ni yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 5-10 foizini tashkil qiladi⁷. O'zbekistonda 1992 yildan beri qo'llanilib kelinayotgan QQS (aktsiz solig'i bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o'rnini to'liq almashtirdi. Ammo, QQS o'zining o'rnini bo'yicha byudjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi. QQS qo'llanila boshlangan vaqtdan hozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati byudjetining asosiy manbalaridan biriga aylandi.

O'tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992 yilda amal qilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib, ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi. Hozirgi vaqtda amaliyotda “nollik” stavka ham qo'llanilmokda.

Soliqning ushbu stavkasi miqdorining saqlanib qolinishi sabab bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

- ushbu stavka MDH davlatlarida ham amal qilib keladi va bu davlatlararo savdoda amalga oshirishda ancha samarali hisoblanadi;
- soliqning ushbu stavkasida davlat byudjetining daromad qismi 30 foizligicha saqlanib qoladi va bu bozor iqtisodiga mo'ljallangan davlatlardagi ushbu manbadan keladigan tushumlar xajmi bilan mos keladi;
- soliqning bu stavkasi yiliga 1-2 foizdan kamayib borayotgan foyda solig'i stavkasining pasayishi natijasida olinmay qolinayotgan byudjet daromadi o'rnini qoplash imkoniyatini beradi.

QQS - ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste'molchiga, sotishgacha bo'lgan jarayonda har bir tsikldan olinadigan bilvosita ko'p pog'anali soliqdir.


⁷ Майбуров И. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2008. С. 112

Uning ob'ekti qo'shilgan qiymat, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xom ashyo, materiallar yoki mahsulotlar qiymatiga qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq mahsulot narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi. QQS bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur'atlari haqida ma'lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini engillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi - soliqning mazkur turining yagona va oxirgi to'lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo'ladi.

Jahon amaliyoti QQSni hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To'lovchi xaridordan sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq summasi va etkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilg'i, ishlar uchun to'langan va ular qiymati ishlab chiqarish va aylanma harajatlarga kiritilgan soliq summasi orasidagi farqni to'laydi. To'lanishi kerak bo'lgan soliq manfiy bo'lib chiqsa, ya'ni bu soliq ko'payib ketsa, qoldiq bo'lajak to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda qabul qilinganidek, byudjetdan boshqa summalar hisobiga qoplanadi. QQSga asoslangan soliq to'lash tizimi soliqlarni qismlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki firmaning barcha sotuvlaridan soliq olinadi, biroq oraliqdagi haridlar uchun to'langan soliqlar keyinchalik umumiy summadan qoplanadi. "Soliq krediti" sifatida tanish bo'lgan bu usul soliq tizimiga o'zini-o'zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi. QQSning asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to'langan soliq miqdorini hisoblash mumkin. Bu misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari berilishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday ko'p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxonalar uyushmasi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishda soliq summasini kamaytiradi va shu tariqa firmalarning vertikal integratsiyasiga turtki bo'ladi.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqiyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi. Umuman byudjet inglizcha so'z bo'lib, davlat, korxonalar, muassasasi va ayrim shaxslarning ma'lum muddatga olinadigan belgilab qo'yilgan kirim-chiqim, ya'ni daromad va xarajatlari majmuini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti asosan soliqlar yordamida to'planadigan hamda davlat tomonidan uning funktsiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan pul mablag'larining markazlashtirilgan fondidir, u qonun kuchiga ega, Respublika Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq etishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti faoliyat ko'rsatilishining tashkiliy shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tuzilishi – “O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi to'g'risida”gi qonuniga muvofiq respublikaning mustaqil davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi. Tarkibiga respublika byudjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni olib, tuziladigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish Davlat rejasiga muvofiq ravishda daromad va xarajatlarni bo'yicha tuziladi. Buni quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin:



*1-chizma. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tarkibiy tuzilishi*⁸

⁸ Chizma O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi Qonuni asosida keltirildi.

Bevosita soliqlar salmog'ini kamaytirish hisobiga bilvosita soliqlar ulushini oshirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilar zimmasidan iste'molchilar zimmasiga o'tkazish bevosita korxonalar hamda fuqarolarning moliya-xo'jalik faoliyatiga, ya'ni ularning daromadlari hajmiga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Bevosita soliqlarning kamayishi bilan ishlab chiqarishning rivojlanishi rag'batlantiriladi, tegishli soliqqa tortish bazasi kengayib, byudjetga tushumlar ortadi. Bevosita soliqlar stavkalarini kamaytirish va bilvosita soliqlarga tortish bazasini kengaytirish orqali bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, soliq stavkalarini yanada ko'proq pasaytirish yo'li bilan ayrim yo'nalishlar eksport, xorijiy investitsiyalar va boshqalar rag'batlantiriladi.

So'nggi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat byudjetining daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar ulushining ancha o'sayotganini hamda bevosita soliqlar salmog'ining kamayayotganini ko'rsatmoqda. Chunonchi, 2012 yilda byudjetga soliq tushumlarining 67 foizdan ortig'ini bilvosita soliqlar, mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari tashkil etgan. Buni quyidagi 1-jadvalda ham ko'rish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari (foizda)⁹

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	100	100	100	100
To'g'ri soliqlar	26,6	26,1	26,2	25,2
Egri soliqlar	49,5	53,1	53,5	54,3
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	16,0	15,1	14,3	13,3
Ustama foyda solig'i	2,3	0,2	0,8	1,2
Boshqa daromadlar	5,6	5,5	5,1	6,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, byudjet daromadlarini shakllantirishda egri soliqlarning o'zni muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu turdagi

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

solliqlar 2009 yilda 49,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda 54,3 foizni tashkil etmoqda. To'g'ri solliqlar bo'yicha tushumlar esa 2009 yilda 26,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 25,2 foizni tashkil etgan, 2009 yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich 1,4 foizli punktga kamdir. Bu holatni ayrim to'g'ri solliqlar stavkalarining pasayishi natijasida yuz berganligi bilan izohlash mumkin. Byudjet daromadlarida resurs solliqlari ham alohida ahamiyatga egadir. Mol-mulk va resurs solliqlari bo'yicha tushumlar 2009 yilda 16,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 13,3 foizni tashkil etgan. Soliq-byudjet siyosatining qisqa va uzoq muddatli maqsadlari va dastaklarida keyingi yillarda davlat byudjeti daromadlar qismini shakllantirishda asosan solliqlarga tayanilishi nazarda tutilmoqda. Shu sababdan davlat byudjeti daromadlar qismini shakllantirishda boshqa daromadlarning hissasi ortmoqda. Agarda 2009 yilda boshqa daromadlar byudjet daromadlarining 5,5 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib ularning ulushi 6,0 foizga teng bo'lgan.

Yuqorida biz Respublikamiz byudjetida solliqli to'lovlarning salmog'ini tahlil qildik quyida esa Samarqand viloyati Urgut tumani byudjetida solliqli to'lovlarning salmog'ini tahlil qilamiz:

2-jadval

Urgut tumani byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (foizda)¹⁰

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
To'g'ri solliqlar	38,6	36,4	32,9
Egri solliqlar	50,0	52,1	51,7
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	6,6	6,5	6,6
Boshqa daromadlar	0,8	1,1	0,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yillar bo'yicha to'g'ri solliqlar mos ravishda masalan, 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 38,6 foizni, 2011 yilda 36,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 32,9 foiz bo'lgan, ya'ni

¹⁰ Urgut tuman DSI hisobot ma'lumotlaridan olindi.

kamayish tendentsiyasiga ega. Bunday holatni egri soliqlarda ham ko'rish mumkin, ya'ni 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan salmog'i 50,0 foizni, 2011 yilda esa 52,1 foizni tashkil etgan holda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2012 yilda esa 51.7 foizni tashkil etgan holda kamayganligini ko'rish mumkin. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari esa yillar bo'yicha barqarorlik tendentsiyasiga ega, ya'ni 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 6.6 foizni, 2011 yilda 6.5 foizni, 2012 yilda esa 6.6 foiz bo'lgan.

Endi esa 2009-2012 yillarda Davlat byudjeti daromadlarida egri soliqlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasini tahlil qilsak:

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida egri soliqlar bo'yicha tushum dinamikasi (foizda)¹¹

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	100	100	100	100
Egri soliqlar	49,5	53,1	53,5	54,3
Qo'shilgan qiymat solig'i	29,7	30,4	32,3	33,0
Aktsiz solig'i	14,4	16,7	15,3	15,1
Bojxona boji	3,5	3,8	3,2	3,5
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1,9	2,4	2,6	2,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga kelib tushayotgan egri soliqlar tarkibida aktsiz solig'idan tushumlarning 2010 yildan boshlab kamayib borganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, davlat byudjeti daromadlari tarkibida aktsiz solig'idan tushumlar 2009 yilda 14.4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda bu soliq 16.7 foizgacha ortgan. Biroq, 2011 yilda 15.3 foizni, 2012 yil byudjet ko'rsatkichlarida esa 15.1 foizni tashkil etgan holda kamayish

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

an'anasiga ega. Egri soliqlar tarkibida transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning ulushi keyingi yillar mobaynida o'sish an'anasiga ega bo'lgan, ya'ni 2009 yilda ushbu soliqning jami daromadlardagi ulushi 1.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 2.4 foizni, oxirgi ikki yilda bu soliqning jami daromadlardagi ulushi mos ravishda 2.6 va 2.7 foizni tashkil etishi kuzatilmoqda.

Quyida keltirilgan jadvalda Urgut tuman byudjetida egri soliqlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlarning salmog'i tahlili berilgan:

4-jadval

Urgut tuman byudjeti daromadlarida egri soliqlar bo'yicha tushum dinamikasi (foizda)¹²

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Egri soliqlar	100	100	100
Qo'shilgan qiymat solig'i	59.1	67.3	66.5
Aktsiz solig'i	36.4	29.2	29.1
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	4.5	3.5	4.4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda Urgut tuman byudjetiga kelib tushayotgan egri soliqlar salmog'i nobarqarorlik xarakteriga ega. Tuman byudjeti daromadlari tarkibida eng yuqori salmoq qo'shilgan qiymat solig'iga tegishli bo'lib uning salmog'i 2010 yilda 59.1 foizni, 2011 yilda 67.3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 66.5 foiz bo'lgan.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash mexanizmi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda – mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. QQS bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraqa fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan

¹² Urgut tuman DSI hisobot ma'lumotlaridan olindi.

nazoratga avtomatik tus berdi. Biroq bunda asosiy muammo - QQS to'lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri – adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to'lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to'lovchilarining soliq yuki ortmoqda.

Shu tariqa QQSni birxillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo'nalish tusiga ega bo'ladi. Mazkur soliq davlatga juda qulay va "arzon" tushadi. Chunki korxonalar va tashkilotlar foyda olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar tovarlar sotilishi bilan byudjetga kelib tushadi, ya'ni byudjet daromadlarining uzluksizligini ta'minlaydi. 1998 yildan boshlab mahsulot (ish, xizmatlar) jo'natilishi tovarlarning realizatsiya qilingan deb hisoblanadi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida korxonalar va aholi daromadlarining juda past darajada bo'lishi natijasida, davlat ko'proq egri soliqlarni oshirishga majbur bo'lmoqda. Lekin davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun yuqori darajaga ko'tarishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin¹³. Uning ma'lum darajada iqtisodiy asoslangan, korxonalar moliyaviy holatini va aholi turmushi moddiy darajasini normal xolatda ta'minlaydigan chegarasi bo'lishi lozim. Jismoniy shaxslar daromad solig'i undirilishda (to'g'ri soliq) soliq to'lovchining daromadi darajasi, to'lov qobiliyati va boshqa e'tiborga olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ida esa bunday xolatlar e'tiborga olinmaydi. Tovarlarini ehtiyojini qondirish uchun sotib olgan aholi bu soliqni to'layveradi.

¹³ Toshmatov Sh. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. 28-bet.

2-BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINING AMALIY TAHLILI (URGUT TUMANI KORXONALARI MISOLIDA).

2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti hamda soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:

- soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;
- zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;
- oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar (ushbu tizmiga mansub korxonalar ixtiyoriy ravishda to'lovchilar bo'lishi mumkin).

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa

faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Urgut tumanida ro'yxatdan o'tgan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar to'g'risida ma'lumot berilgan.

5-jadval

Urgut tumani bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari to'g'risida ma'lumot¹⁴

Soliq to'lovchilar	2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra		2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra		2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
Tumanda ro'yxatdan o'tgan jami yuridik shaxslar	1901	100	2072	100	2181	100
Shundan, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi yuridik shaxslar	197	10.4	198	9.6	127	5.8


Jadvaldan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tumanda kamayish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2010 yilda jami soliq to'lovchilarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi yuridik shaxslar ulushi 10.4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 9.6 foizni, 2012 yilda esa 5.8 foizni tashkil etmoqda. 2012 yilda 2010 yilga nisbatan 70 ta korxonaning yopilishi hisobiga salmoq 4.6 foizli punktga kamaygan.

Soliq kodeksining 198-moddasiga muvofiq soliq solish ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- soliq solinadigan oborot;
- soliq solinadigan import.

Buni quyidagi 2-chizmada ham ko'rish mumkin:

¹⁴ Urgut tuman DSI xisobot ma'lumotlari.



2-chizma. *Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solish ob'ekti*¹⁵

Soliq kodeksining 199-moddasiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan:

- tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish);

- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa;

- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

- garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tayyorlandi.

- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;
- mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;
- to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;
- mol-mulkni operativ ijaraga berish;
- intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'lmaydi:

- soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish;
- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;
- soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;
- garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan shisha idishni jo'natish;
- tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va ob'ektlarini bepul asosda berish;
- banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;
- oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;
- tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;
- ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;
- ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

- ob'ekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir, bundan quyidagilar mustasno:

- qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborot;
- realizatsiya qilingan joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lmagan oborot.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidenti uchun bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlarni, xizmatlarni oluvchining soliq solinadigan oborotiga belgilangan tartibda kiritiladi.

Soliq solinadigan baza, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va soliqdan beriladigan imtiyozlar.

Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi¹⁶. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizlik stavka bo'yicha to'lanadi. Quyidagilar esa nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi:

- tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga;
- chet el tarafi o'zarolik printsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2012. 27-modda

texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga);

- bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa;

- xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga;

- suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan ana shunday xizmatlarga.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Sqqs = Say \times S / 100; (1),}$$

bunda: **Sqqs** - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va tariflar bo'yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:


$$\mathbf{Sqqs = Tq \times S / (S + 100); (2),}$$

bunda: **Tq** - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan yoki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotadigan korxonalar erkin (shartnomaviy) narx va tarifga qo'shilgan qiymat solig'i summasini

qo'shmaydilar. Bunday tartib amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Soliqdan beriladigan imtiyozlar soliq kodeksining 208-moddasida berilgan bo'lib, mazkur imtiyozlarni quyidagicha guruhlash mumkin:



3-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning guruhlanishi¹⁷.

Yuqoridagi moddaga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar (harakatlar);
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
- bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tayyorlandi.

- dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

- davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

- pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

- aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

- byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

- shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari;

- oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

- vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

- tibbiy (veterinariya) xizmatlari, kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno, shuningdek dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shu

jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar.

- davlat mulkini xususiylashtirish tartibida realizatsiya qilinayotgan mol-mulk;

- gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

- geologiya va topografiya ishlari;

- bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari);

- O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

- aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash;

- davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

- o'zi etishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

- kitob mahsulotlari, maktab o'quv qurollari va ko'rgazmali qo'llanmalarning, dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ulgurji savdosi.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

- jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

- chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzar (kreditlar) mablag'lari, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

- dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xom ashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga tatbiq etilmaydi;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarini etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin

berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

- investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

- vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

- bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xom ashyo, materiallar va yarim mahsulot.

- qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och.


2.3. Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish va byudjetga to'lash muddatlari.

Soliq kodeksining 224-moddasiga muvofiq soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovarlarini import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil

yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqa-fakturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqa-fakturalar reestrlarini taqdim etadi.



4-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash tartibi¹⁸

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tayyorlandi

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi (4-chizmada qarang).

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini Urgut tumanida faoliyat yuritayotgan "URG-GAZ KARPET" O'zbek-Turk qo'shma korxonasi hamda "SAM-NEGIN" MChJi misolida ko'rib o'tamiz. Buning uchun ushbu korxonalarining 2012 yil uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitobiga murojat qilamiz.

6-jadval

“URG-GAZ KARPET” QKsining qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi (so'm hisobida)¹⁹

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi	010	8 204 388 142.23
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi	020	19 292 977.0
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	8 223 681 119.23
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi	040	2 875 209 644.75
Byudjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	-5 348 471 474.48

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "URG-GAZ KARPET" QKsida hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi -

¹⁹ "URG-GAZ KARPET" QKsining yillik soliq hisobotidan olindi.

8 223 681 119.23 so'mni tashkil etgan bo'lsa, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi - 2 875 209 644.75 so'mni tashkil etmoqda. Natijada soliq bo'yicha manfiy qoldiq hosil bo'lmoqda. Demak, korxonaga byudjetdan 5 348 471 474.48 so'm ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i qatarilishi lozim.

Soliq kodeksining 227-moddasiga muvofiq, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib berish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Soliq kodeksining 207-moddasiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qoplanadi;
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud qarzi qoplanadi;
- Soliq kodeksining 228-moddasiga muvofiq soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Quyida keltirilayotgan jadvalda esa Urgut tumanida faoliyat yuritayotgan ikkinchi korxonamiz "SAM-NEGIN" MChJining 2012 yil uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitobi berilgan. Korxonada qo'shilgan qiymat solig'ini quyidagicha tartibda hisoblaydi:

7-jadval

**“SAM-NEGIN” MChJining
qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi (so'm hisobida)²⁰**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi	010	604 624 802.86
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan	020	-

²⁰ "SAM-NEGIN" MChJining yillik soliq hisobotidan olindi.

tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi		
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	604 624 802.86
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi	040	416 396 877.8
Byudjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	-188 227 925.06

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "SAM-NEGIN" MChJida hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi - 604 624 802.86 so'mni tashkil etgan bo'lsa, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi - 416 396 877.8 so'mni tashkil etmoqda. Natijada korxonada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy qoldiq hosil bo'lmoqda. Demak, korxonaga byudjetdan -188 227 925.06 so'm ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i qatarilishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, Soliq Kodeksiga muvofiq soliq to'lovchiga qaytariladi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining navbatdagi hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha navbatdagi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni yozma arizaga to'rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha

qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;

- qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi;
- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-moddasiga muvofiq, Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi. Mazkur savolda biz qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarga taqdim etilgan imtiyozlarni qo'llashdagi ba'zi bir xatoliklar xususida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 208-210-moddalarida qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod etiladigan operatsiyalar ro'yxati keltirilgan. Xo'jalik sub'ektlari imtiyozni qo'llaganda mahsulot (ishlar, xizmatlar) shartnomaviy bahosini shakllantirishda QQSni hisoblamaydilar, bo'shaydigan mablag'lardan maqsadli foydalanish sharti bilan berilgan imtiyozlar bundan mustasno. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan korxonalar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchilar moddiy resurslarni (ishlar, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga sotib oladilar. Bunda sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritiladi.

QQS bo'yicha imtiyozlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ajratish mumkin:

- ijtimoiy yo'nalishli - bu ta'lim, tibbiyot, jismoniy tarbiya va sport uchun, bolalarni maktabgacha muassasalarda va bolalar dam olish oromgohlarida

saqlash uchun berilgan imtiyozlar, nogironlarga mahsulot sotish va xizmatlar ko'rsatish uchun, aholiga turarjoy - kommunal va ekspluatatsion xizmatlarni ko'rsatish, diniy tashkilotlar xizmatlari, shahar yo'lovchi transporti va h.k. uchun imtiyozlardir;

- iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini hamda davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tarmoqlarni rag'batlantirishga qaratilgan imtiyozlar. Ushbu toifaga ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlar, gidrometeorologik, aerologik, geologik va topografik ishlar, davlat mulkini xususiylashtirish, bosma mahsulot, turizm, tovarlar eksporti va h.k.lar bo'yicha imtiyozlar kiradi;

- moliyaviy va cyg'ypta xizmatlarini rag'batlantirish;
- boshqa imtiyozlar.

Ta'kidlash joizki, QQS bo'yicha imtiyozlar faqat bevosita Soliq kodeksining 208,209,210-moddalarida sanab o'tilgan tovarlarni ishlab chiqaruvchi, xizmatlarni ko'rsatuvchi va ishlarni bajaruvchi shaxslarga tegishli. Chunonchi, agar tadbirkorlik faoliyati komissiya, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnomalar asosida uchinchi shaxslar manfaatlarida amalga oshirilsa, ko'rsatilayotgan vositachilik xizmatlari umumbelgilangan tartibda QQSga tortiladi. Shunday qilib, vositachilik xizmatlari, garchi ular imtiyozli tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq bo'lsa ham, QQSga tortiladi.

QQS bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda xo'jalik sub'ektlari yo'l qo'yadigan xatolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchi, imtiyozlar qo'llaniladigan tovarlarni sotishda vositachi tashkilotlarning imtiyozlardan g'ayriqonuniy foydalanishi. Masalan, protez-ortopedik buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxonada o'z mahsulotini O'zbekiston Respublikasi hududida nogironlar jamiyatiga vositachi firma orqali sotadi. Protez-ortopedik buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonada etkazib berish qiymati 16 000 ming so'mni tashkil etadi. Vositachi firma etkazib berish qiymatidan (16000 ming so'm) 10 foiz miqdorida (yoki 1600 ming so'm) tovarni sotish bo'yicha xizmatlar uchun komissiya mukofotini qo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq (208-modda 5-bandi) protez-ortopediya buyumlarini realizatsiya qilish oborotlari QQSdan ozod qilinadi. Ko'pincha amaliyotda ushbu imtiyozni vositachilik savdosida ham qo'llaydilar. Ta'kidlash joizki, bunday imtiyoz faqat ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan foydalanilishi mumkin, bunday buyumlarni realizatsiya qilish oborotlari (16000 ming so'm) QQSGa tortilmaydi. Vositachi firma, agar u qonunchilikka muvofiq QQS to'lovchisi bo'lsa, u o'zining vakillik mukofotidan, ya'ni 1600 ming so'mdan QQS hisoblashi va to'lashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi (204-modda 13-qismi). Shunday qilib, vositachilik firmasi uchun soliq solinadigan baza 1600 ming so'mni, hisoblangan QQS summasi esa - 266,66 ming so'mni ($1600 \times 20/120$) tashkil qiladi.

Ikkinchidan, imtiyozlardan foydalanilganda va soliqqa tortiladigan oborotlar mavjud bo'lganda alohida hisob yuritilmaydi, sotib olingan tovarlar, ishlar, xizmatlar bo'yicha butun QQS summasi esa hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 221-moddasiga ko'ra, soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo'lganda soliq solinadigan oborotga, shu jumladan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek yuridik shaxsning o'z ehtiyojlari uchun (xarajatlar sifatida qaraladigan) oborotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchining tanloviga binoan alohida-alohida va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas. Mutanosib usul

qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, QQSni hisoblashga 5-ilovada korxonalar qanday me'yorlarga muvofiq realizatsiya oborotlari QQSdan ozod qilinganini ko'rsatishlari kerak. Bunda, shunga e'tibor qaratish kerakki, agar imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi tomonidan belgilangan bo'lsa, uni asoslashda "Soliq kodeksi, modda, band" ko'rsatilishi zarur. Masalan, bemorlar va qariyalarni parvarishlash bo'yicha xizmatlar realizatsiya oborotlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi, bunda asoslashda quyidagicha belgilab qo'yiladi: "Soliq kodeksi, 208-modda, birinchi qism, 3-band".

Agar imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Xukumati qarorlari bilan belgilangan bo'lsa, uni asoslashda Xukumat qarori raqami va bandi ko'rsatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 10 avgustdagi PK-1172-sonli "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Fargona va Zarafshon vodiylarida suv resurslarini boshqarish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan OTB qarz mablag'lari hisobidan investitsiya davrida ushbu loyiha doirasida xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va transport vositalari qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod etilgan.

Asoslashda "2009 yil 10 avgustdagi PK-1172-sonli qaror, 8-band" deb ko'rsatiladi. Asoslashni to'ldirmaslik QQS bo'yicha imtiyozlarni asossiz qo'llashga olib keladi.

Turtinchidan, soliq to'lovchilarga imtiyozlar berilayotganda ularni maqsadli qo'llash kuzda tutilishi ham, tutilmasligi ham mumkin. Amaliyotda maqsadli qo'llash kuzda tutilgan va kuzda tutilmagan imtiyozlarni qo'llashda QQSdan foydalanishni chalkashtirib yuborishadi.

Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni byudjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida nizomga muvofiq (2005 yil 24 fevraldagi O'zR Moliya vazirligining 29-son, Davlat soliq qo'mitasining 2005-25-son va Davlat bojxona qo'mitasining 01-02/8-3-son qarori bilan tasdiqlangan, qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 2 aprelda 1463-son bilan ro'yxatga olingan) soliqlar va bojxona imtiyozlari bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan berilganda soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni byudjetga hisoblab yozish qonun hujjatlariga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mahsulot (tovar, ishlar, xizmatlar)ni va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishda hisobvara-q-fakturalar yozib berilishi va ularda soliqqa tortiladigan oborot uchun hisoblanadigan QQS summasi (QQS to'lovchilari uchun) va aktsiz solig'i summasi (aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar (mahsulotlar)ni realizatsiya qilganda) ajratib ko'rsatilishi lozim. QQS to'lovchisi hisoblangan va QQS bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan korxonalar xarid qilinadigan (shu jumladan import qilinadigan) tovar-moddiy zaxiralar (tovarlar) bo'yicha QQS summasini xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to'lanadigan QQSni belgilashda hisobga kiritadilar. Imtiyozlarni qo'llash hisobiga bo'shagan mablag'lap summasi maqsaddan tashqari foydalanilganda QQS summasi hisoblanmaydi, hisobvarak-fakturalar QQSsiz yoziladi, xarid qilinadigan (shu jumladan import qilingan) tovar-moddiy zaxiralar (tovarlar) bo'yicha soliq summasi hisobga olib borilmasdan, xarid qiymatiga qo'shiladi. Biroq ko'pchilik korxonalar imtiyozlardan maqsaddan tashqari foydalanganda ham hisobrakam-fakturalarni QQSni ajratgan holda

yozadilar, xaridorlar esa ajratilgan soliq summasini hisobga qabul qiladilar, bu esa hisoblangan soliq summasining kamayishida aks etadi.

Imtiyozlardan maqsadli foydalanganda, ya'ni QQS hisoblanib, u hisobvaraqa-fakturalarda ajratib ko'rsatilganda, korxonalar QQSni hisoblashga 2- ilovada (Hisobga qabul qilinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisoblash) 3-chi ustunning 0101-0104 satrlarida realizatsiya soliq solinadigan va soliq solinmaydigan qismi aks ettirilsa-da, 0401-0402 satrlarda (proportsional usulda hisobni yuritganda soliq solinadigan oborot uchun xarid qilingan tovarlar, ishlar xizmatlar bo'yicha QQS summasi) QQS summasi 3-ustunning 0101-0104 satrlarida belgilangan salmoqlarga muvofiq hisoblanmaydi. Tegishlicha, 050-satrdan QQS summasi salmoqlarni hisobga olmasdan aks ettiriladi, garchi realizatsiya bo'yicha soliqdan ozod qilingan oborotga to'g'ri keladigan QQS summasi mahsulot realizatsiyasining umumiy hajmida ozod etilishi kerak bo'lgan butun realizatsiya oboroti salmog'iga muvofiq aniqlanishi kerak.

Bundan tashqari, bunday korxonalar ko'pincha QQS bo'yicha hisob-kitoblarni takdim etmaydilar. Shunday ekan, bunday holat byudjetga to'lanadigan QQS summasini va bo'shagan mablag'larni noto'g'ri aniqlashda o'z aksini topadi, bu esa korxonaning QQS bo'yicha bo'shagan mablag'lardan qonunchilikda belgilangai maqsadlarda foydalanishi imkoniyatlarini pasaytiradi. Nol darajali stavka bo'yicha QQSga tortiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oborotlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 38-bobining 212, 214, 215, 216, 217 moddalarida belgilab qo'yilgan. Nol darajali stavkadan foydalanish shuni bildiradiki, QQSga tortiladigan oborotlarga 0 foiz miqdoridagi stavka qo'llaniladi, ya'ni xaridorlarga sotiladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar narxida QQS butunlay yo'q, nolga teng. Nol darajali stavkani qo'llaganda etkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i, QQS bo'yicha soliq solishdan ozod qilingan oborotlar (imtiyozli) uchun ko'zda tutilganidek, tovarlar qiymatiga qo'shilmaydi, balki Soliq kodeksining 39-bobida ko'zda tutilgan tartibda hisobga qabul qilinadi (qoplanadi).

Bunday oborotlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni xorijiy valyutaga eksportga realizatsiya qilish;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun realizatsiya qilish;
- “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo’yicha ishlarni bajarish (xizmatlar ko’rsatish);
- xalqaro yo’nalishda tashishlar;
- axoliga kommunal xizmatlar ko’rsatish.

Amaliyotda korxonalar nolga teng stavkalarni qo’llaganda quyidagi xatolarga yo’l qo’yadilar:

Birinchi, nol darajali stavka qo’llanilmaydigan tovarlarni eksport qilganda yoki Rossiya Federatsiyasiga respublika qonunchiligiga ko’ra nolga teng soliq solish qo’llaniladigan, xalqaro shartnomada esa boshqacha me’yorlar ko’zda tutilgan tovarlarni etkazib berganda nol darajali stavkani qo’llash.

Chunonchi, tovarlarni eksport qilganda nol darajali stavkani qo’llash uchun quyidagi ikki shart bajarilishi zarur:

- tovarlarni O’zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga O’zbekiston Respublikasi SK 213-moddasida keltirilgan hujjatlar bilan tasdiqlanib haqiqiy olib chiqib ketilishi;
- eksport qilingan tovar uchun to’lov xorijiy valyutada amalga oshirilishi lozim.

Agar O’zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar o’rnatilgan bo’lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo’llaniladi.

Misol:

O’zbekiston Respublikasi Xukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Xukumati o’rtasidagi “O’zaro savdoda bilvosita soliqlarni undirish tamoyillari haqida”gi Kelishuvda ko’zda tutilishicha, eksport bojxona rejimiga joylashtirilgan, bir Taraf davlatining bojxona hududidan olib chiqilgan va boshqa taraf davlati bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar bilvosita soliqlarga (QQS va aktsiz) nol darajali stavkalarda tortiladi, tabiiy gaz va neft, jumladan barqaror gaz kondensati bundan mustasno.

Shunday qilib, Rossiyaga tabiiy gaz va neftni, jumladan barqaror gaz kondensatini eksport qilganda respublikamiz korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini 20 foizli stavkada hisoblaydilar, ya'ni bu holda QQSning nol darajali stavkasi qo'llanilmaydi.

Ikkinchidan, keyinchalik korxonada qoladigan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqmasdan, "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishda bajarilgan xizmatlar uchun to'lov hisobiga nol darajali stavkani qo'llash.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Ushbu imtiyozni qo'llash uchun quyidagilar zarur:

- mazkur xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi hududi tan olinishi;
- qayta ishlash mahsuloti O'zbekiston bojxona hududidan tashqariga olib chiqib ketilishi.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, agar qayta ishlash mahsulotlari keyinchalik O'zbekiston hududidan olib chiqilmasdan, "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilsa, bu tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar (xizmatlar) 20 foizli stavkada qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi hududiga qayta ishlash uchun olib kirilgan va qayta ishlash mahsulotlarini olish uchun foydalanilgan, "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar bo'yicha barcha bojxona to'lovlari, shu jumladan tovarlarni import qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i ham to'lanishi lozim.

Misol:

Korxonada O'zbekiston Respublikasi hududiga "Bojxona hududida qayta ishlash" rejimida vtulkalar ishlab chiqarish uchun po'lat olib kiradi. Olib

kirilayotgan po'latning bojxona qiymati 60 000 ming so'mga teng, undan 1000 ta vtulka ishlab chiqarish mumkin, ular to'lik hajmda bojxona hududidan olib chiqib ketiladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan bajariladigan vtulkalar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar - 20 000 ming so'mni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 202-moddasi 5-bandiga ko'ra vtulkalarni ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi deb e'tirof etiladi, chunki xizmatlarni bajaruvchisi faoliyati joyi O'zbekiston Respublikasi hududidir. Mahsulotning to'liq hajmda olib chiqib ketilishini hisobga olsak, vtulkalarni ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar nol darajali stavkada QQSga tortiladi. Agar buyurtmachi ishlarning qiymatiga haq to'lash hisobiga mahsulotning bir qismini ijrochida qoldirsa, O'zbekiston Respublikasi hududida qoldiriladigan mahsulotga to'g'ri keladigan ishlar qismi umumbelgilangan tartibda QQSga tortiladi, ya'ni bu holda nol darajali stavka qo'llanilmaydi.

Bundan tashqari, qolayotgan mahsulot "erkin muomalaga chiqarish" rejimiga o'tkazilishi bois, mahsulot olish uchun ishlatilgan va qayta ishlash bo'yicha ishlar (xizmatlar)ga haq to'lash hisobiga qoldiriladigan tovar importi bo'yicha bojxona to'lovlari, shu jumladan tovarlar importi uchun QQS to'lanishi kerak. Bu shu bilan izohlanadiki, Bojxona kodeksiga muvofiq qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarilganda import bojxona bojlari va soliqlar qayta ishlash uchun ishlatilgan tovarlar qiymatidan va ularga qo'llanilgan to'lov stavkalaridan kelib chiqib to'lanadi. Agar buyurtmachi qayta ishlash bo'yicha ishlar (xizmatlar) qiymatini to'lash hisobiga, shartnomaga muvofiq, ijrochiga qayta ishlash uchun olib kirilgan tovar (xom ashyo)ning bir qismini qoldirsa, bu holda faqat bojxona to'lovlari, jumladan tovarlar importi uchun QQS O'zbekiston Respublikasi hududida qoldiriladigan tovarlar (xom ashyo) qiymatidan kelib chiqib to'lanadi.

Misol:

Ishlab chiqaruvchiga vtulkalar ishlab chiqarish bo'yicha ishlar uchun haq to'lash hisobiga 200ta vtulka qoldirilgan, ularni ishlab chiqarish qiymati 4 000 ming so'mni tashkil etadi.

Ushbu misolda nol darajali stavka ishlab chiqarish bo'yicha ishlarning butun qiymatiga emas, balki olib chiqib ketiladigan vtulkalarga to'g'ri keladigan qismiga qo'llaniladi. Vtulkalarning faqat 800 donasi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilishi bois, nol darajali stavka 16 000 ming so'mlik ishlar qiymatiga qo'llaniladi. Ishlab chiqarish ishlarining qolgan 4 000 ming so'mlik qismi QQSga 20 foizli stavkada tortiladi. Korxonada uning ishlari (xizmatlari) uchun haq to'lash hisobiga qolgan mahsulotni realizatsiya qilganda, agar korxonada QQS to'lovchisi bo'lsa, to'langan QQS Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobga qabul qilinishi mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hududida qoladigan tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan import qilinadigan tovarlar bo'yicha to'langan QQS ham hisobga qabul qilinadi.

Uchinchidan, xalqaro tashuvlar bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilganda.

Shuni ham aytish kerakki, 2010 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar uchun QQS bo'yicha imtiyozlar bekor qilindi. Shu munosabatda O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar belgilangan tartibda soliqqa tortilishi kerak. Shu bilan birga, xalqaro yo'nalishda tashishlarda nol darajali stavka qo'llaniladi.

Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha nol darajali stavkani qo'llashda asosiysi, xizmatlarni realizatsiya qilish joyini aniqlashdir. Agar xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa, bu xizmat O'zbekiston Respublikasi hududida soliqqa tortiladi, ya'ni QQS O'zbekiston Respublikasi hududida to'lanadi. O'zbekiston

Respublikasi Soliq kodeksining 202-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududi xalqaro tashuvlar bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi, agarda bu xizmatlarni ko'rsatuvchi shaxsning tadbirkorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilayotgan bo'lsa. Bunda mazkur moddaga kura, realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi deb e'tirof etilgan xalqaro tashuvlar bo'yicha xizmatlar nol darajali stavkada soliqqa tortiladi.

Nol darajali stavkada soliqqa tortiladigan xalqaro yo'nalishda tashishlarga quyidagilar kiradi:

- tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish;
- yulovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashish.

Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi.

Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalqaro yo'nalishlarda tashish hisoblanadi. Bunda, agar tashish bo'yicha xizmatlar O'zbekiston Respublikasida joylashgan jo'natish joyidan boshlab ko'rsatilsa va etkazib berish joyi ham O'zbekiston Respublikasi chegarasida tugasa, nol darajali stavka bunday hollarda qo'llanilmaydi. Masalan, korxonasi tovarni eksport qiladi va yuklarni tashish bo'yicha temir yul xizmatlariga haq to'laydi. Bunda, temir yo'l korxonasi yukni respublika hududidan o'z lokomotivida olib o'tadi. Chegarada yukni boshqa respublika temir yo'lining boshqa korxonasi qabul qiladi. Korxonasi yukni tashish uchun o'zbek korxonasiga 10,0 ming so'm to'laydi va xorijiy korxonaga 20,0 ming AQSh dollari to'laydi.

Ushbu xolatda yukni tashigan o'zbek korxonasi uchun nol darajali stavka qo'llanilmaydi, chunki yukni jo'natish joyi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, yukni etkazish joyi ham O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqmaydi. Korxonada xizmatlar qiymatiga belgilangan tartibda QQS hisoblashi kerak ($10,0 \times 20\%$). Bunda yukni tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar qiymati respublika hududida QQS bilan 12,0 ming so'mni tashkil qiladi.

3.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aynan soliqlar davlatning iqtisodiyotga ta'sir o'tkazishida asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlat soliqlarning iqtisodiy funksiyasi orqali xalq xo'jaligining rivojlanishini rag'batlantirar, rivojlantirar ekan, fiskal funksiyasi kengaytiradi, bu bilan soliq yukini ko'paytirmasdan turib, davlatning o'zi faoliyat ko'rsatish va yashashi uchun ob'ektiv shart-sharoit ta'min etiladi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq sohasidagi islohotlar keng qamrovli uzluksiz jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni izchil amalga oshirilishi uchun soliq tizimini takomillashtirish va rivojlantirish kontsepsiyasi talab etiladi. Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda, fikrimizcha, egri soliqlarni, shu jumladan, davlat byudjeti daromadlarining manbai sifatidagi rolini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi, hukumatning bosh islohotchi sifatida yirik investitsion xarajatlarining mavjudligini hisobga olib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar summasining barqaror salmog'ini ta'minlash zarur;
- qo'shilgan qiymat solig'ini undirish yuzasidan Evropa ittifoqiga a'zo bo'lgan etakchi davlatlarning soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalaridan respublikamiz sharoitida keng ko'lamda foydalanish zarur. Xususan, soliq

stavkalarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlarning turlari bo'yicha tabaqalashtirish tartibini, tadbirkorlarning soliqqa tortilmaydigan oborotlari bo'yicha minimal miqdorni belgilash usulini respublikamizning soliq amaliyotida qo'llash ijobiy natijalar beradi;

- qo'shilgan qiymat solig'ini undirish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarur;

QQSni hisoblashning chegirmalash usulida korxonalar to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasini sotib olingan va ishlab-chiqarish jarayonida ishlatilgan tovarlar (xizmatlar) qiymatini bu tovarlarni ishlatish yo'li bilan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarning qiymatidan chegirib tashlash va olingan natijani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblaydi. Shunday qilib, soliq bazasini aniqlashda sotilgan tovarlar qiymatidan xom-ashyo va boshqa oraliq tovarlarning qiymati chegirib tashlanadi. Haqiqatda QQSni hisoblashning mazkur usuli foydani hisoblash usuliga yaqin, lekin uning murakkabligi shundaki, har doim ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan tovar-moddiy qimmatliklarning qiymatini noto'g'ri aniqlash xavfi saqlanib qoldi. Mazkur usulning asosiy kamchilligi shundaki, sotib olingan resurslar bo'yicha to'langan soliqlar summasi tannarxning tarkibida aks ettiriladi. Buning natijasida "yig'ilgan soliq" samarasi yuzaga keladi, soliqni undirish modeli esa ma'lum darajada kumulyativ xarakterga ega bo'lib qoladi.

QQSni hisoblashning voz kechish usuli Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Bunda QQSning summasi tovarlar va xizmatlarni sotib olish jarayonida to'langan soliq summasini sotilgan tovarlar bo'yicha hisoblangan soliq summasidan ayirib, olingan natijani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Mazkur usulning muhim xususiyati shundaki, QQSning summasi har bir tovar turi bo'yicha ishlab chiqarishning so'nggi bosqichidagi soliq stavkasiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, agar oldingi bosqichlarda soliq stavkasi past bo'lgan bo'lsa yoki soliqdan ozod qilingan bo'lsa, bu engillik ishlab chiqarishning so'nggi bosqichida olingan soliq summasi hisobidan qoplanib ketadi. Demak, chegirmalash usulida voz kechish

usuliga xos bo'lgan mazkur kamchilik mavjud emas. Buning ahamiyatga molik jihati shundaki, QQS bo'yicha beriladigan imtiyozlarining asosiy qismi tovarlarni ishlab chiqarish bosqichiga tegishlidir. Bu esa, ko'plab imtiyozlarni ta'sirchanligini pasayishiga olib keladi, chunki xo'jalik sub'ektlar QQS bo'yicha muomala bosqichida imtiyozga ega bo'lmaganligi sababli imtiyozga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar bilan oldi-sotdi munosabatlarini amalga oshirishdan manfaatdor bo'lmaydi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, voz kechish usulida QQS bo'yicha imtiyozlar berish faqat bittagina holatda ya'ni, imtiyozga ega bo'lgan korxonaning o'zi tovarlarni bevosita iste'moliga sotsa yoki tovarlar QQS to'lashdan ozod qilingan chakana savdo korxonalari orqali sotilsagina samara beradi. Agar QQS bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan korxonalar so'nggi iste'molchi o'rtasida imtiyozga ega bo'lmagan oraliq bo'g'in mavjud bo'lsa, u holda QQS bo'yicha berilgan imtiyoz o'zining samaradorligini yo'qotadi. Barcha mahsulot va ish, xizmatlarni bajaruvchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar yoki ozod bo'ladilar, ba'zi bir guruxdagi xo'jalik sub'ektlariga esa qo'shilgan qiymat solig'i to'lash o'rniga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lash o'rniga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik sub'ektlariga yagona soliq to'loviga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, yagona er solig'i to'lashga o'tgan qishlok xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lish, alohida soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi xo'jalik sub'ektlarining soliq to'lashi bo'yicha majburiyatlaridan to'liq ozod etilishini bildirmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishida faqat ishlab chiqarishda hosil bo'lgan qo'shilgan qiymatgina soliqqa tortilmaydi. Lekin ushbu qo'shilgan qiymatni hosil qilishga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari ilgaritdan qo'shilgan qiymat solig'igiga tortilganidir. Shunday qilib, xo'jalik sub'ektlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi yoki alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi haqida gapirilganda ular tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblamasligi va uni

byudjetga to'lamasligiga e'tibor berishimiz, biroq ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish xom ashyolar uchun, yonilg'i-moylash materiallari, elektroenergiya, boshqa materiallarga, shuningdek ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyati uchun o'ziga xos ikki xususiyatga egadir. Chunki ular xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi. Birinchi xususiyati shundaki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik sub'ektlari o'z tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxida ishlab chiqarish materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i to'g'ridan-to'g'ri kiritadi, hamda boshqa ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tannarxining elementi sifatida o'zida aks ettiradi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi xaqida gap ketganda o'ziga xos so'z o'yini bo'ladi. Chunki soliqdan ozod qilinishi bilan byudjetga soliqdan ozod bo'ladi, lyokin ishlab chiqarish uchun olingan mahsulot va xizmatlarning tannarxiga boradigan xom-ashyolarni sotib olishda ularga xisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini tulaydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi xom-ashyo materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini o'ziga hisob qilishga talab qila olmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'ini o'z tovar-xizmatlarini sotib oluvchidan olishga huquqi bulmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan hamda alohida soliqqa tortish tartibi joriy etilgan xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining ikkinchi xususiyati shundaki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar va xizmatlarni sotib olayotgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi ro'yxatda turgan xo'jalik su'bekti o'zi tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulotlar uchun soliq kreditidan foydalana olmaydi. Shu tufayli ishlab chiqaruvchiga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashda mahsulotlarni sotishda hisoblangan soliq va mahsulotlarni sotib olishda to'langan soliq orasidagi farqni to'lamay, balki sotish oborotidan xisoblangan soliqni to'liq to'lashga majbur bo'ladi. Buning

natijasida qo'shilgan qiymat solig'iga tortish zanjirida soliqdan ozod qilingan bo'linma tushib qolishi tufayli qo'shilgan qiymat soliqqa bir necha marotaba tortiladi va soliq to'lash og'irligi keyingi bo'linma zimasi tushadi. Chunki u soliqdan ozod qilingan mahsulotlarni o'z ishlab chiqarishi uchun ishlatadi. Qanchalik qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan mahsulotlar va ishlab chiqaruvchilar ko'paysa, qo'shilgan qiymat ikki yoki undan ortiq marta soliqqa tortilishi extimoli ko'paya boradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi, alohida soliqqa tortish tartibi qo'shilgan qiymat solig'ining mahsulotlar bahosigi va xo'jalik sub'ektlarining soliqdan ozod qilingan ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri katta bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tdikki soliqdan ozod qilingan xo'jalik su'bekti ishlab chiqarish resurslarini ko'p hollarda qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladilar va bu soliqni o'z ishlab chiqarish xarajatlariga to'liq qo'shadilar. Buning natijasida mahsulotning bahosi oshishiga olib kelinadi. Agar ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotining bahosini oshirishga imkoni bo'lmasa, u holda mahsulot bahosini oshirmaslik uchun ishlab chiqarish omillarini kamaytirishga majbur bo'ladi. Aks holda ishlab chiqaruvchi kam foyda olishga majbur bo'ladi. Shunday kilib, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish tufayli korxonalar o'z mahsuloti bahosini oshirishga majbur bo'ladi yoki aks holda foyda miqdorini yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga majbur bo'ladi. Birinchi holda, qo'shilgan qiymat solig'i ist'emolga ta'sir kilib, bahoni oshirishga olib keladi, ikkinchi holda esa, ishlab chiqarishga ta'sir kilib, foydani kamaytirishga olib keladi.

XULOSA

Demak, qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Bunda ishchi kuchi bilan bog'liq xarajatlar hisobga olinmaydi. Ushbu bildirilgan fikrdan kelib chiqadiki, qo'shilgan qiymatni ishchi kuchiga qilingan xarajatlar (ishlab-chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarga berilgan ish haqi, mukofotlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar) va tovarni ishlab chiqarish natijasida olingan foyda summasiga teng bo'lgan miqdor sifatida ham ko'rish mumkin. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Tovarlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi har bir ishtirokchi qo'shilgan qiymatning ustiga o'zining hissasini qo'yadi. Shuning uchun tovarlarni va xizmatlarni qiymati ularni ishlab chiqarish va sotish jarayonida qo'shilgan qiymatlarning umumiy summasiga teng. Shunday qilib, qo'shilgan qiymat egri soliqlarni undirish uchun birlamchi ob'ektiv asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati, maqsad va vazifalari hamda ularni soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri, byudjet daromadidagi hissasini tahlil qilish va bu boradagi majud muammolarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ining amal qilish tartibi asoslari ishlab chiqilgan;
2. Qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy betaraflik shakli sifatidagi eksportga soliqlarni aniq belgilash va qaytarish imkoniyatini yaratadi;
3. Tashqi savdoga nisbatan betaraf, tovarlarni ichki ishlab chiqarish va sotish borasida aralashuvlarni keltirib chiqarmaydi;

4. Ishlab chiqarishning ko'p mexnat yoki sarmoya talab qiladigan tarmoqlariga, mulkchilik shakliga ta'sir qilmaydi;

5. Davlat daromadlarining manbai sifatida barqaror, ishonchli va tushunish uchun nisbatan engil soliqqa tortish vositasi.

Qo'shilgan qiymat solig'idagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini respublikamizdagi yutuq va kamchiliklarni hisobga olgan holda hamda xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi yutuqlarini hisobga olib quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmining soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish va mazkur soliq bo'yicha tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini joriy qilish lozim;

2. Soliq kodeksiga muvofiq nashriyotlar, gazeta va respublikamizning matbuot va kitob savdosi korxonalarining asosiy faoliyatiga doir mahsulotlar va xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. Xorijiy davlatlarda gazeta va jurnallarga pasaytirilgan stavkada qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Bizning respublikamizda jurnallarning ayrim turlari, masalan reklama nashriyotlari ko'p bo'lgan jurnallarga qo'shilgan qiymat solig'ini nisbatan pasaytirilgan 15 foizli stavkada soliqqa tortish tavsiya etiladi;

3. Soliq kodeksiga muvofiq taqdim etilayotgan imtiyozlar va noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan qo'llanilayotgan moliyaviy sanksiyalar hamda jarimalar tartibini kompleks tarzda tahlil qilish asosida, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini byudjet daromadlarini shakllantirish darajasidagi tarkibini e'tiborga olgan holda soliq imtiyozlarini berish va jarima solishning aniq chegaralarini aniqlash lozim;

4. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, QQSning ortib jo'natilgan usulidan to'liq foydalanishda xaridorlar uchun iqtisodiy noqulay holatlar vujudga kelmoqda. Albatta, bu holat vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tganimizdan keyin o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishi mumkindir. Ammo hozirgi kundagi vaziyat sotuvchi va ishlab chiqaruvchi, xaridor va iste'molchiga nisbatan noqulay tenglikda bo'lmoqda. Ya'ni xaridorlar

iqtisodiy tomondan ustuvor moliyaviy qulayliklarga ega bo'lyapti. Bizning fikrimizcha, shakllanayotgan bunday vaziyatni yaxshilash yoki qisman yumshatish uchun quyidagi tadbirni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, xarid qilib olingan tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar va ishlar uchun 15 foizlik oldindan to'lovni va qolgan 85 foizlik keyingi to'lovni qanday bo'lsa shunday holatda qoldirishni maqsadga muvofiq deb, ayni shu davrda sotuvchilar uchun QQS bo'yicha soliq tanaffusi berishni yo'lga qo'yish va shu davrlar ichida (so'nggi 85 foizni to'liq to'lagunga qadar, ya'ni 90 kun ichida) aybona va jarimani undirishni bekor qilish lozim. Ana shunday moliyaviy chora-tadbir amal qilsa, sotuvchi korxonalar o'z aylanma mablag'larini maqsadli yo'nalishi bo'yicha sarflashga qulay imkoniyat tug'iladi.

5. Bizning fikrimizcha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- qo'shilgan qiymat solig'ining maqsadlarini amalga oshirish uchun uning bazasi lozim darajada keng bo'lishi, tovarlar va xizmatlarning imkoni boricha ko'p sonini qamrab olishi zarur;

- qo'shilgan qiymat solig'i biznesning shakl va usullarini tanlashga, shuningdek, iste'molchilarning tovarlarni tanlashiga ta'sir qilmasligi kerak, bu soliq kreditining qisqa muddatda kaytarilishini, qo'shilgan qiymat bazasining barcha iste'mol tovarlariga, ya'ni xom ashyo, oraliq mahsulotlar, ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlarga taalluqli bo'lishini taqozo etishi;

- qo'shilgan qiymat solig'i pirovard maqsad tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. Bu import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ining ichki mahsulotga soliqdan farq qilmasligi kerakligini, eksport tovarlarining qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmasligini bildiradi. Shuningdek, bu soliq turi soliq to'lovchilarning tushunib etishi uchun sodda va engil bo'lishi kerak.

- qo'shilgan qiymat solig'idan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berishda hamda byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish lozim.

Shu maqsadda, qo'shilgan qiymat solig'ini shakllantirish va rivojlantirish quyidagilar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- soliq to'lovchilarning faoliyati, soliq ob'ektiga nisbatan soliq stavkasini belgilashga ilmiy yondashish;
- Respublika va mahalliy byudjetlarga qo'shilgan qiymat solig'idan tushumni ilmiy yondashgan holda ko'rib chiqish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirishda murakkab vazifalar qo'yilayotgan bir paytda, qo'shilgan qiymat solig'idan muammolarni chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Shuning uchun ham qo'shilgan qiymat solig'ining ijtimoiy ahamiyatini alohida-alohida mezon sifatida olib, bajarish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash ana shu muammo doirasida amalga oshirilmog'i kerak;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi, hukumatning bosh islohotchi sifatida yirik investitsion xarajatlarining mavjudligini hisobga olib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar summasining barqaror salmog'ini ta'minlash zarur;
- qo'shilgan qiymat solig'ini undirish yuzasidan Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan etakchi davlatlarning soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalaridan respublikamiz sharoitida keng ko'lamda foydalanish zarur. Xususan, soliq stavkalarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlarning turlari bo'yicha tabaqalashtirish tartibini, tadbirkorlarning soliqqa tortilmaydigan oborotlari bo'yicha minimal miqdorni belgilash usulini respublikamizning soliq amaliyotida qo'llash ijobiy natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2012
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2012
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni.
//Xalq so'zi, 1997 yil 29 avgust
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi Qonuni.
//Soliqlar va bojxona xabarlari, 2000 yil 14 dekabr
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni.
//Xalq so'zi, 2006 yil 21 sentyab
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabdagi “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi 1887-sonli Qarori
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabdagi “O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi 1675-sonli Qarori
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabdagi “O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi 1449-sonli Qarori
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabdagi “O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy

ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi
1245-sonli Qarori

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning
asarlari va ma'ruzalari:**

- 1.10.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: “O'zbekiston”, 2013. –32 b.
- 1.11.Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: “O'zbekiston”, 2012. –36 b.
- 1.12.Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –360 b.
- 1.13.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –432 b.
- 1.14.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –528 b.
- 1.15.Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. –T.: “O'zbekiston”, 2010. –264 b.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlar:

- 2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: “Sharq”, 2009. –448 b.
- 2.2. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. –508 b.
- 2.3. Malikov T., Vahobov A. Moliya. Darslik. –T.: “NOSHIR”, 2010. –712 b.

- 2.4. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abdurahmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2009. –184 b.
- 2.5. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2007. –128 b.
- 2.6. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NOSHIR”, 2012. –236 b.
- 2.7. Gadoev E. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i. –T.: “NORMA”, 2011. –328 b.
- 2.8. Musagaliev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillash-tirishning dolzarb masalalari. –T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Soliq akademiyasi, 2010. –116 b.
- 2.9. Toshmurodova B., Elmirzayev S. Korporativ soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: “MUMTOZ SO'Z”, 2010. –104 b.
- 2.10. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2005. –544 b.
- 2.11. Gadoev E., Kuzieva N. O'zbekistonning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli va ahamiyati. O'quv-uslubiy qo'llanma –T.: “EL PRESS”, 2011. –204 b.
- 2.12. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. –211 b.
- 2.13. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. Monografiya. –T.: “Fan nashriyoti”, 2004. –242 b.
- 2.14. Sh.Toshmatov. Qo'shilgan qiymat solig'i. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2004. –228 b.
- 2.15. Гарасова В., Владыка М., Сапрыкина Т., Семькина Л. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Кнорус”, 2012. –488 с.
- 2.16. Дорофеева Н., Брилон А., Брилон Н. Налоговое администрирование. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2010. –296 с.

- 2.17.Черник Д.Г. Налоги и налогообложения: Учебник. –М.: “ЮНИТИ”, 2010. –310 с.
- 2.18.Майбуров И. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2008. –511 с.
- 2.19.Александров И. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2006. –318 с.
- 2.20.Пансков В. Налоги и налогообложение в Российской Федерации. Учебник. –М.: “МЦФЭР”, 2006. –592 с.
- 2.21.Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. –899 с.
- 2.22.Алиев Б., Абдулгалимов А., Алиев М. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”, 2011. –240 с.
- 2.23.Скворцов О. Налоги и налогообложение. Практикум. Учебное пособие. –М.: “Академия”, 2010. –208 с.
- 2.24.Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Эксмо”, 2010. –240 с.
- 2.25.Качур О. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Кнорус”, 2009. –360 с.
- 2.26.Евстигнеев Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –Спб.: “ПИТЕР”, 2009. –320 с.
- 2.27.Алиев Б. и другие. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Финансы и кредит”, 2008. –448 с.
- 2.28.Скрипниченко В. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “БИНФА”, 2008. –496 с.
- 2.29.Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. –М.: “Бератов-Пресс”. 2002. –380 с.
- 2.30.Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar. –Т.: “NORMA”, 2012. –480 б.

2.31. O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. –T.: “NORMA”, 2012. –512 b.

2.32. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillari) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –140 b.

III. Internet saytlari:

- 3.1. <http://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)
- 3.2. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
- 3.3. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi)
- 3.4. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi)
- 3.5. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
- 3.6. <http://www.ziyonet.uz> (Jamoat axborot ta'lim tarmog'i)
- 3.7. <http://www.nalog.ru> (Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati)
- 3.8. <http://www.fmc.uz> (“FINMANCONSULT” kompaniyasi)
- 3.9. <http://www.norma.uz> (“NORMA HAMKOR” MChJ)